**Ravshanov Sanjar Tolibjonovich, Otoboyeva Aziza Shakirovna, Usanov Yoqub Dilmurod o'g'li**

AQLLI SUG'ORISH TIZIMLARI YORDAMIDA SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI....425
**Sulaymonov Mirobid Abduxolikovich**

SMART TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI SOTISH: BLOCKCHAIN TEXNOLOGIYASINING QO'LLANILISHI....342
**Aktamova Vasila Uktamovna**

RAQAMLI TAHLIL YORDAMIDA O‘SIMLIKLAR UCHUN OPTIMAL O‘SISH SHAROITLARINI YARATISH ........ 436
**Ravshanov Sanjar Tolibjonovich, Otoboyeva Aziza Shakirovna, Jumayev Azamat Uchqun o‘g‘li, Hamdullayev Jamoliddin Feruzxon o‘g‘li**

QISHLOQ XO‘JALIGIDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI ........ 440
**N.Mamatkulov, R.Aminov**

UY HAYVONLARINI RO‘YXATDAN O‘TKAZISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA ULARNING QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI IJTIMOIY VA IQTISODIY AHAMIYATI ........ 443
**Sulaymonov Mirobid Abduxolikovich, Usanov Rashid Sharofovich**

ISSIQXONALARNING REAL VAQT REJIMIDA BOSHQARUV MONITORING TIZIMINI ISHLAB CHIQISH, NAZORAT QILISH VA OPTIMALLASHTIRISH ........ 448
**Otoboyeva Aziza Shakirovna**

RAQAMLASHTIRISH VA EKOLOGIK INNOVATSIYALAR ORQALI O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOTNI JORIY ETISH ........ 454
**Usanov Rashid Sharofovich**

ZARARKUNANDALAR TARQALISHINI BASHORAT QILISHDA SUN’IY INTELLEKT MODELLARI. ........ 458
**Ravshanov Sanjar Tolibjonovich, Otoboyeva Aziza Shakirovna**

QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARINI GEOMETRIK MODELLASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISHNING AMALIY YONDASHUVI ........ 462
**Xaknazarova Xurshidabonu Kenjayevna**

FLUTTER ASOSIDAGI O‘SIMLIKLARNI TANISH VA SOG‘LOMLIGINI TAHLIL QILISH ........ 467
**Ravshanov Sanjar Tolibjonovich**

FERMERLAR UCHUN MOBIL ILOVALAR: AXBOROT, TAHLIL VA MASLAHATLAR ........ 471
**Aktamova Vasila Uktamovna, Axtamova Umida Uktamovna**

IOT VA AI INTEGRATSIYASI ORQALI SUVNI TEJASH ........ 475
**Raxmatullayeva Nozima Shodiqulovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

UO‘K: 332.132

# CHORVACHILIK XO‘JALIKLARIDA ISHLAB CHIQARISHNI TASHKIL ETISHDA KO‘P OMILLI OPTIMALLASHTIRISH USULLARI

**Mavlyanov Majid Tuychievich**
SamDVMCHBU “Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: majid.mavlyanov1975@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0001-5162-0558

Annotatsiya: Ushbu maqolada yirik shoxli qoramollarni parvarishlashda optimal ozuqa ratsionini tuzish uchun ko‘p omilli optimallashtirish va genetik algoritmlardan foydalanish bo‘yicha xorijiy bilimlarning tajribalari tahlil qilingan. Tahlillar umumlashtirilgan holda tegishli xulosalar berilgan. Xususan, genetik algoritmlarning qoramollar ozuqa ratsionini tuzishda boshqa usullarga nisbatan afzalliklari va kamchiliklari yoritib berilgan. Ushbu xulosalar asosida ko‘p omilli optimallashtirish usullarini xo‘jaliklarda qo‘llash va natijalarni e’lon qilish rejalashtirilgan.

Kalit so‘zlar: optimallashtirish; ko‘p omilli optimallashtirish; evristik algoritmlar; genetik algoritmlar; optimal ozuqa ratsioni; optimallik mezonlari.

Abstract: The article analyzes the experience of foreign scientists in the use of multifactor optimization and genetic algorithms to create optimal rations for feeding cattle. The analyses are summarized and the corresponding conclusions are given. In particular, the advantages and disadvantages of genetic algorithms are emphasized in comparison with other methods of developing rations for feeding cattle. Based on these conclusions, it is planned to apply the methods of multifactor optimization in farms and publish the results.

Key words: optimization; multifactor optimization; heuristic algorithms; genetic algorithms; optimal feeding ration; optimality criteria.

Аннотация: В статье анализируется опыт зарубежных учёных по использованию многофакторной оптимизации и генетических алгоритмов для создания оптимальных рационов кормления крупного рогатого скота. Анализы обобщены и даны соответствующие выводы. В частности, подчеркиваются преимущества и недостатки генетических алгоритмов по сравнению с другими методами разработки рационов кормления крупного рогатого скота. На основании этих выводов планируется применить методы многофакторной оптимизации в хозяйствах и опубликовать результаты.

Ключевые слова: оптимизация; многофакторная оптимизация; эвристические алгоритмы; генетические алгоритмы; оптимальный рацион кормления; критерии оптимальности.

## KIRISH

Global iqlim o‘zgarishlari va iste’molning keskin oshib borishi chorvachilik sohasida qator muammolarni ko‘ndalang qo‘ymoqda. Prognozlarga ko‘ra keyingi ikki o‘n yillikda dunyo aholisi 34% oshib, oziq-ovqat iste’moli 70 foizgacha o‘sishi kutilmoqda [1]. Bu esa urbanizatsiyaning tezlashishi va qishloq xo‘jaligi uchun foydalaniladigan ekin maydonlarining qisqarishiga olib keladi. Bundan tashqari fermerlarning oldida xo‘jalik samaradorligini saqlab qolish, ishlab chiqarishlarini turli ekologik muammolarga moslashtirish, chorva mollarini to‘yimli ozuqa bilan ta’minlash orqali ekologik oqibatlarni yumshatish kabi qator muammolar keltirib chiqarmoqda [2]. Bularning barchasi chorva mollarini oziqlantirishni murakkablashtiradi. Xususan, global iqlim o‘zgarishi natijasida cho‘llashishning muntazam oshib borishi chorva mollarini oziqlantirish uchun yaylovlar va ekin maydonlarining keskin kamayib ketishi chorvadorlar oldiga hosildorlikni oshirish va to‘yimli ozuqa ekinlaridan samarali foydalanish vazifasini qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra 2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra mamlakatimizda qoramollarning bosh soni 14 389,8 ming boshga (jumladan, 5 130,5 ming bosh sigirlar), qo‘y va echkilarning bosh soni 24 589,1 ming boshga yetgan. Barcha turdagi xo‘jaliklarda 12 443,8 ing tonna

sut va 2 942,5 ming tonna go‘sht yetishtirilgan[1] . Ammo mamlakatimizda yetishtirilayotgan go‘sht va sut mahsulotlari ichki talabni qondirishga yetarli bo‘lmayapti. Shu sabadan 2024-yilda 169,76 mln AQSh dollariga tirik hayvonlar, 164,62 mln AQSh dollariga sut mahsulotlari, tuxum va asal, 681,97 mln AQSh dollariga go‘sht va go‘sht mahsulotlari import qilingan[2] . Bu ko‘rsatkichlar Respublikamizda chorvachilikda ilmiy asoslangan innovatsion yondashuvlarni joriy qilishni talab qiladi. Jumladan, chorva mollarining zot va nasllarini yaxshilash, ilmiy asoslangan ozuqa ratsioni asosida oziqlantirish orqali mahsuldorliklarini oshirish talab qilinadi.

Chorvachilikda iqtisodiy samaradorlik ko‘p jihatdan ularni oziqlantirishga bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarish xarajatlarining 60–80%i oziqlantirishga to‘g‘ri keladi [3]. Qoramollar uchun ozuqa ratsionini tuzishda bir tomondan qoramollarning yoshi, jinsi, tirik vazni, zoti, mahsuldorligi, mahsulotning miqdori va sifati inobatga olinsa ikkinchi tomondan ularga berilayotgan ozuqalarning tarkibiy tuzilishi (ozuqa birligi, energetik quvvati, xom protein, makro va mikroelementlar) inobatga olinishi zarur. Shuningdek ozuqa turlarining bahosi ham muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki fermerlar qoramollarni oziqlantirish uchun asosiy ozuqalarni o‘zlariga tegishli bo‘lgan (yoki ijaraga olingan) ekin maydonlarida yetishtirishadi. Iqlim sharoiti, agrotexnologik ishlovlar, yig‘ishtirish muddatlari, saqlash sharoitlari tufayli tayyorlangan ozuqalar ko‘rinishi jihatidan bir xil bo‘lsada tarkib jihatdan farq qiladi. Shuningdek, qoramollarni oziqlantirishda oziq-ovqat sanoatining ikkilamchi mahsulotlari yoki chiqindilari yuqori konsentratsiyalashgan to‘yimli ozuqalar hisoblanadi. Bu mahsulotlar ham tarkibiy xilma-xillik xususiyatlarini namoyon qilishadi [4].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab chorvachilikda optimal ozuqa ratsioni tushunchasi kirib keldi. Optimal ozuqa ratsionining maqsadi hayvonlarning ozuqa moddalarga bo‘lgan minimal talablarini qondiradigan, pirovardida  iqtisodiy samaradorlikka olib keladigan ozuqalar aralashmasining tarkibini aniqlashdan iborat [5]. Dastlab ozuqa ratsionlari ozuqa turlarining tarkibi va bahosidan iborat bo‘lgan jadvallar ko‘rinishida shaklantirilgan. Keyinchalik optimallashtirishning turli sonli usullaridan foydalanilgan. Bu usullarda chorvachilik hayvonlarining turli ozuqa moddalarga va ingrediyentlarga bo‘lgan minimal talablarini nazariy jihatdan qanoatlantirsada, amaliyotda qator muammolarga duch kelishardi [6].

Bu sohadagi dastlabki tadqiqotlar F.Waugh tomonidan 1951 yilda chop etilgan, bo‘lib sog‘in sigirlarning to‘yimli ozuqalarga bo‘lgan minimal talabini qanoatlantiruvchi iqtisodiy samarali ratsion chiziqli dasturlash masalasi ko‘rinishida tuzilgan [7]. Bu tadqiqot keyinchalik ko‘plab olimlarning turli chorvachilik hayvonlari hamda parrandalar uchun optimal ozuqa ratsionlarini tuzishlariga turtki bo‘ldi. Bu uslubiyat turli kichik fermerlarning chorva mollari uchun o‘z xo‘jaliklarida mavjud ozuqalardan kundalik ratsion tuzishlariga yordam berdi [8].

Chiziqli dasturlashning ozuqa ratsionini tuzishda muhimligi bilan bir qatorda bir qancha biologik kamchiliklarni yuzaga keltiradi. Modomiki biologik tizimlardagi ko‘pgina vaziyatlar chiziqsiz xarakterga ega bo‘ladi. Shu sababdan chiziqli dasturlash ozuqa moddalarning disbalansi va o‘zaro ta’sirini optimal tasvirlay olmasligi mumkin. Bu kamchiliklar esa hayvonlarda ba’zi ozuqa moddalar difitsetiga yoki miyordan oshib ketishi sababi bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin [9]. Chiziqli dasturlashdagi bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida cheklashlarga tuzatishlar kiritiladi. Shunday alternativlardan biri sifatida ozuqadagi to‘yimli moddalar o‘zgarishini inobatga olishga qaratilgan stoxastik dasturlashdir. Tadqiqotlar stoxastik dasturlash qoramollar ratsionining aniqlik va ishonchliligini oshirishini ko‘rsatadi [10].

Qoramollar uchun ozuqa ratsionini tuzishda chiziqli dasturlashning yana bir murakkab tomoni cheklashlarda ozuqa moddalarning ko‘pligi (15-22) olinishidadir. Bunday holatda oziq moddalar va minerallarga nisbatan talablarni cheklashlarga kiritilganda masalaning optimal yechimi mavjud bo‘lmay qolishiga olib kelishi mumkin [11].

## METODLAR VA MATERIALLAR

Maqola monografik ko‘rinishga ega bo‘lib, bir qator xorijiy olimlarning ilmiy asarlari tahlili asosida xulosalar keltirilgan.

Bir vaqtda energiyani maksimallashtirish, vaznni maksimallashtirish, issiqxona gazlarini qisqartirish, ozuqa moddalarni qisqartirish variatsiyasi, moddalar almashinuvini minimallashtirish va mahsuldorlikni maksimallashtirish kabi maqsadlarni qamrab olishi mumkin. Ko‘p omilli optimallashtirish (KOO) boshqa yondashuvlarga nisbatan bir necha ustunliklarni namoyon qiladi. KOOda iqtisodiy asoslangan, turg‘un va ekologik toza ozuqa ratsionini shakllantirish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari KOO hayvonlarning rivojlanishi

1 Ўзбекитсон Республикаси миллий статистика қўмитаси ахбороти. Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги. 2024-йил январ-декабр ойлари. https://stat.uz/img/press-reliz-uzb_p99977.pdf
2 https://tradingeconomics.com/uzbekistan/imports-by-category

va salomatligiga ta'sir qilmagan holda xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini beradi. Bu esa muammoni to'la qamrab oladigan matematik usullarni ishlab chiqishni talab qiladi [12].

Ozuqa ratsionini tuzishda qo'llaniladigan muhim evristik yondashuvlardan biri genetik (GA) algoritmlardan foydalanishdir. Xususan, GA parranda va qoramollarni oziqlantirishda foydalaniladigan ozuqa qorishmalarini tuzishda muvaffaqiyatli foydalanilmoqda.

Genetik algoritm (GA) – bu tabiiy tanlanish jarayoniga asoslangan, optimizatsiya muammolarini hal qilishga mo'ljallangan algoritmlash usulidir. Bu algoritm populyatsiya, mutatsiya va krossover (crossover) kabi biologik jarayonlarga asoslanadi. Boshqa stoxastik algoritmlar kabi GA global optimal yechimni topishni kafolatlamaydi. Ammo u yetarlicha qabul qilish mumkin bo'lgan yechimni olishni ta'minlay oladi [13].

GA bir nechta turlar yoki xromosomalardan iborat bo'lgan populyatsiyaga ega bo'lib, qiymatlar funksiyasini minimallashtirish orqali moslashuvchan (fitnes) qiymatini maksimal darajada oshirishga qaratilgan tanlash qoidalariga muvofiq rivojlanadi. Jarayon har biri muammo yechimini ifodalovchi bir nechta xromosomalardan iborat bo'lgan populyatsiyani tasodifiy generatsiyalashdan boshlanadi. So'ngra populyatsiyadagi har bir xromosomaning fitnes qiymati tekshiriladi. Shundan so'ng krossingover (crossover) va mutatsiya orqali. Keyingi avlodga o'tish uchun xromosomalar soniga mos tanlash amalga oshiriladi. Xromosomalar fitnes qiymatiga asosida tanlanadi. Yangi shakllangan xromosoma eskisi bilan almashtiriladi. O'zgartirish genetik algoritmning boshlang'ich populyatsiyasiga sonli usullarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bu mexanizm Kramer qoidasi bilan hisoblangan boshlang'ich qiymatlarni xromosoma sifatida populyatsiyaga kiritish orqali amalga oshiriladi. So'ngra populyatsiyadagi boshqa xromosomalar tasodifiy yaratiladi [14].

Kramer qoidasi asosida hisoblardan olingan xromosoma boshqa xromosomalarga nisbatan yuqori fitnes qiymatga ega bo'ladi. Shu sababli u optimal yechimga yaqin qiymatni ifodalaydi. Shunday qilib, yechimni qidirish jarayonining dastlabki davrida yetarlicha katta fitnes qiymatni beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Genetik algoritmlardan foydalanishda uning mazmun mohiyatini tushirib yetish kerak bo'ladi. Shu sababli dastlab genetik algoritmlarning asosiy tushunchalarini keltiramiz:

Populyatsiya (Population) – algoritm ish boshlashi uchun zarur bo'lgan mumkin bo'lgan yechimlar (individ va xromosomalar) to'plami. Populyatsiyaning har bir individi masalaning potensial yechimini ifodalaydi.

Xromasaoma (Chromosome) – masala yechimini tasniflovchi kod shakllari. GA da xromosomalar satr yoki massivlardan iborat genlardan tashkil topgan bo'ladi.

Gen (Gene) – yechimning aniq tasnifi haqidagi axborotni saqlovchi xromosoma elementi. Masalaning berilishiga qarab gen binar sonli yoki boshqa tipda bo'lishi mumkin.

Fitnes funksiya (Fitness function) – sifat mezoni asosida har bir xromosomani (yechimni) baholash funksiyasi. Fitnes qiymati qanchalik katta bo'lsa, berilgan masala uchun topilgan yechim shunchalik yaxshi bo'ladi.

Tanlash (Selection) – fitnes qiymatlari asosida nasl olish uchun individlarni tanlash jarayoni.

Krossover ( Crossover) – yangi seleksiyalar olish uchun ikkita ota-ona xromosomalarni chatishtirish operatsiyasi. Bunda yangi avlodlar ota-onalarining ba'zi tasniflarini saqlashadi.

Mutatsiya (Mutation) – xromosoma genlarining tasodifiy o'zgarishi. Mutatsiya populyatsiyaga turli-tumanlik va lokal optimumdan qochishni ta'minlaydigan axborotlarni kiritadi.

Seleksiya (Generation) – xromosomaning tanlashb fitnes, krossover va mutatsiya asosida yuzaga keladigan bitta iteratsiya jarayoni. Genetik algoritm shunday seleksiyalarning tugatish mezonini qanoatlantirguncha davom etadigan sikldan iborat bo'ladi.

Tugatish mezoni (Termination Criteria) – algoritm o'z ishini tugatishini ifodalovchi shart. Masalan, berilgan sondagi avlodlarni hosil qilish, mezonni qanoatlantiruvchi yechimni olish, bir necha fitnes qiymatlarida yaxshilanuvchi avlodning mavjud emasligini aniqlash.

Genetik algoritmlarning ozuqa ratsionini tuzishda qo'llash quyidagi ustunliklarga ega:

- Ozuqa tarkibidagi oqsillar, uglevodlar, yog'lar, vitaminlar va minerallar balansini optimallashtirish orqali hayvonlarning sog'ligi va mahsuldorligi ta'minlash imkonini beradi.
- GA qo'llash orqali hayvonlarning barcha ozuqaviy talablarini qanoatlantiruvchi ozuqa moddalarga ega bo'lgan eng arzon ozuqa ratsionini aniqlash imkonini beradi.
- Sog'in miqdorini oshirish, buzoqlar o'sishini ta'minlash, reproduktiv ko'rsatkichlarni oshirish kabi maqsadlarni inobatga olgan holda ratsionni tahrirlash imkoniyati atsidoz, ketoz kabi kasalliklarni kelib chiqishini minimallashtiradi.
- Hazm qilish jarayonini optimallashtirish orqali hayvonlar chiqaradigan metan va boshqa parnik gazlarini kamaytirish imkonini beradi.

- GA har bir sigirning yoshi, vazni, laktatsiya bosqichi, genetik o'ziga xosligini inobatga oluvchi ratsionni tuzish imkoniyatini beradi.

- GA yordamida ozuqa ratsionini optimallashtirishda uning moslashuvchanlik xususiyatidan kelib chiqib yuqoridagi holatlarda o'zgarishlarni tezkor tahrirlash imkoniyatini beradi.

Genetik algoritmlarning qoramollar uchun optimal ozuqa ratsionini tuzishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga bir qancha kamchiliklari mavjud. Bular:

- Parametrlash. Populyatsiya o'lchami, krossover va mutatsiya ehtimolligi kabi parametr qiymatlarini aniqlash murakkab jarayon bo'lib, ularni noto'g'ri tanlanishi optimallilikni samarasiz qilib qo'yadi.

- Ko'p vaqt va resurs talab qilishi. GA populyatsiya katta bo'lganda yoki qabul qilinadigan yechimga borish iteratsiyalar soni katta bo'lganda ko'p hisoblash resurslari va vaqtni talab qiladi.

- Optimallilikning kafolatlanmaganligi. GA global optimal yechimni kafolatlamaydi. Populyatsiya yetarlicha turli-tuman bo'lmasa yoki parametrlar noto'g'ri tanlangan bo'lsa lokal optimumlarga o'ralashib qoladi.

- Fitnes funksiyaga bog'liqligi. GA hayvonlarning talabi va optimallik mezonining tasniflovchi fitnes funksiyaning to'g'ri tanlanganligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'langan bo'ladi. Fitnes funksiyaning murakkabligi sababli noto'g'ri ifodalanishi adekvat bo'lmagan yechimlarga olib kelishi mumkin.

- Ekspert bilimining zarurligi. GA dan foydalanish samaradorligini aniqlashda parametrlarni tahrirlash uchun hayvonlarni oziqlantirish bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishni talab qiladi.

Hayvonlarni oziqlantirishda dinamik o'zgarishlar (mavsumiy oziqlantirishlarga o'tish, ozuqa narxlarining o'zgarishi va b.) bilan bog'liq jarayonlarda GA operativ javob berish imkoniyati mavjud emas. Buning uchun kiritilgan parametrlarni o'zgartirib turishni talab qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yirik shoxli qoramollarni mahsuldorligini oshirishda matematik usullardan foydalanish samarali natijalarni beradi. Shu boisdan qoramollarning ozuqa ratsionini tuzishda ko'p omilli optimizatsiyalash masalalarini genetik algoritmlar bilan birgalikda qo'llash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin deb hisoblaymiz:

- ozuqa ratsionini tannarxini sezilarli arzonlashtirish;
- chorva mollarining yoshi, vazni, laktatsiya bosqichi, genetik o'ziga xosligini inobatga oluvchi ratsionni tuzish imkoniyatini beradi;
- hayvonlarning energiya, oqsil, minerallarga bo'lgan talablarini to'la qanoatlantirgan holda ularning diffesiti va disbalansini oldini oladi;
- hayvonlarning fiziologik va reproduktiv salomatligini ta'minlashga yordam beradi.

Xo'jaliklarda ko'p omilli optimallashtirish masalasidan foydalangan holda ozuqa ratsionini ishlab chiqish xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorliklarlarini oshirgan holda, chorva mollari va ozuqa resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Sharma, A., Jain, A., Gupta, P., Chowdary, V.,, "Machine learning applications for," IEEE, no. Access 9, pp. 4843-4873, 2020.
2. Pomar, C., Andretta, I., Remus, A., , "Feeding strategies to reduce nutrient losses," Veterinary Science, p. 258, 2021.
3. R. A. Rahman, C. L. Ang, and R. Ramli, "Investigating feed mix problem approaches: An overview and potential solution," International Journal of Biological, Biomolecular, Agricultural, Food and Biotechnological Engineering, vol. 4, pp. 750-758, 2010.
4. M.Mavlyanov, "Qoramollar uchun ozuqa ratsionini tuzishda innovatsion yondashuv," YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, p. 618, 2024.
5. Babić, Z., Perić, T., "Optimization of livestock feed blend by use of goal," International Journal of Production Economics, vol. 130, no. 2, p. 219, 2011.
6. P. Saxena, "Application of nonlinear programming for optimization of nutrient requirements for maximum weight gain in buffaloes.," nternational Journal of Food Science and Nutrition Engineering, vol. 1, no. 1, p. 10, 2011.
7. F. Waugh, "The minimum-cost dairy feed (an application of "linear," Farm Econom., vol. 33, no. 3, p. 308, 1951.
8. Chakeredza, Sebastian, et al., "A simple method of formulating least-cost diets for smallholder dairy production in sub-Saharan Africa.," African Journal of Biotechnology , vol. 7, no. 16, p. 2925, 2008.
9. Ghosh, S., Ghosh, J., Pal, D.T., Gupta, R., "Current concepts of feed formulation for livestock using mathematical modeling(Review)," Animal Nutrition and Feed Technology, vol. 14, no. 1, p. 205, 2014.
10. THOMAS H. D'ALFONSO, WILLIAM B. ROUSH, JOSE A. VENTURA, "Least Cost Poultry Rations with Nutrient Variability: A Comparison of Linear Programming with a Margin of Safety and Stochastic Programming Models," Poultry Science, vol. 71, no. 2, p. 255, 1992.
11. X Urdushev, M Mavlyanov, S Eshankulov, "KLASTERLAR QIShLOQ XO'JALIGI VA ChORVAChILIKDA XO'JALIK YuRITISh FAOLIYaTINI ZAMONAVIY USULLARI SIFATIDA," Academic research in educational sciences, vol. 4, p. 349, 2023.

12. Daniel Dooyum Uyeh, Trinadh Pamulapati, Rammohan Mallipeddi, Tusan Park, Senorpe Asem-Hiablie, Seungmin Woo, Junhee Kim, Yeongsu Kim, Yushin Ha,, “Precision animal feed formulation: An evolutionary multi-objective approach,” Animal Feed Science and Technology, no. 256, p. 114, 2019.
13. S. Dündar and I. Şahin, “Train re-scheduling with genetic algorithms and artificial neural networks for single-track,” Transp. Res. Part C Emerg. Technol., no. 27, pp. 1-15, 2013.
14. Vivi Nur Wijayaningrum, Wayan Firdaus Mahmudy, “Fodder composition optimization using modified genetic algorithm,” Indonesian Journal of Electrical Engineering and Informatics (IJEEI), vol. 7, no. 1, pp. 68-76, 2019.
15. Yu-Lan Wang, Chin-Nung Liao, “Assessment of Sustainable Reverse Logistic Provider Using the Fuzzy TOPSIS and MSGP Framework in Food Industry,” Sustainability, vol. 15, 2023.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

# 2025. aprel. maxsus son / № 5

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz